



SUG‘ORILADIGAN ERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O‘RNI

Ashirov Yusufboy Raximberganovich

Toshkent davlat agrar universiteti q.h.f.f.d., dotsent.

Qayumov Abdusattor

Toshkent Davlat Agrar Universiteti magistranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqola sug‘oriladigan yer maydonlaridan samarali foydalanish va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish va aholiga samarali xizmat ko‘rsatishda sug‘oriladigan yerlarning o‘rni beqiyos.*

Kalit so‘z: *Tabiiy resurslar, resurs, iqtisodiy samaradorlik, konsepsiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль орошаемых земель в эффективном использовании орошаемых земельных площадей, развитии отраслей сельского хозяйства и эффективном обслуживании населения, которая является неоценимой.*

Ключевые слова: *Природные ресурсы, ресурс, экономическая эффективность, концепция.*

Annotation: *This article examines the role of irrigated lands in the efficient use of irrigated land areas, the development of agricultural sectors, and the effective provision of services to the population, which is incomparable.*

Keywords: *Natural resources, resource, economic efficiency, concept.*

Yer resurslari cheklangan resurs bo‘lib hisoblanadi. Ulardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Qolaversa, mazkur jarayon faqatgina biror mamlakat yoki mintaqaga tegishli bo‘lib qolmay, hozirgi vaqtda global ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning ko‘plab yirik tashkilotlari va ilmiy markazlar bevosita ushbu masala bilan shug‘ullanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1992 yil “Atrof-muhit va taraqqiyot” mavzusidagi konferensiyada “Barqaror rivojlanish konsepsiyasi” qabul qilindi (Rio-de-Janeyro, Braziliya) va 2002 yilda Yoxannesburg (JAR)dagi konferensiyada ham davom ettirildi. Unda yer resurslari jamiyat, hamda tabiat rivojlanishida asosiy omil sifatida e‘tirof etildi. Mazkur konsepsiyada tabiat va jamiyat rivojlanishining uch xil, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari targ‘ib etildi. Tuproqlarga inson ta‘sirining kuchayishi sug‘oriladigan dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

Sug‘oriladigan (obikor) dehqonchilik Movarounnahrda ham qariyb 5 ming yillik tarixga ega. Yer yuzi tuproq qatlamining hozirgi holati birinchi navbatda kishilik jamiyatining faoliyati bilan belgilanadi. Inson tuproqlarga ijobiy va salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Inson tuproqlarning hosildorligini oshirishi, yerlarning holatini yaxshilashi mumkin. Shuning bilan birga shahar qurilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi natijasida tuproqlar yaroqsiz holga kelishi,



emirilishi mumkin. Hozirgi kunda tuproqlar maydonining kamayishi uning tiklanishidan ko'plab marta tezroq amalga oshmoqda.

Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Suv xo'jaligi organlari sug'oriladigan eri bo'lgan yer egalari va erdan foydalanuvchilarni sug'orish ishlari uchun manbalarning servsuligini hisobga olgan holda joriy etilgan limitlar bo'yicha suv to'g'risidagi qonunchilik bilan belgilanadigan tartibda suv bilan ta'minlashlari shart.

Sug'oriladigan yerlardan faqat qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, shuningdek bog'dorchilik, uzumchilik va ko'p yillik dov-daraxtlar yetishtirish uchun foydalanilishi mumkin.

Sug'oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim. Bunday yerlarni sug'orilmaydigan yerlar sirosiga o'tkazish alohida hollarda, tuproq-meliorativ va iqtisodiy sharoitlar, yerlarning suv bilan ta'minlanganligi, ulardagi mavjud suv resurslari hamda bu suvlarga belgilangan limitlar inobatga olingan holda, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining xulosasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan amalga oshiriladi.

Sug'oriladigan yerlarni qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlar uchun, shu jumladan sanoat va fuqarolik obyektlari (binolar va inshootlar) qurilishi uchun, shuningdek unumdor tuproq talab etilmaydigan ilg'or texnologiyalarning (gidroponika va boshqalar) yangi usullari qo'llaniladigan issiqxonalar qurilishi uchun ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda ularga tuproq unumdorligi pasayishiga olib keladigan tarzda usullar bilan ishlov berish yoki ularning shikastlanishiga olib keluvchi boshqa usullarni qo'llash taqiqlanadi.

Iqtisodiy barqaror rivojlanish – ishlab chiqarish kuchlarini hududlar bo'yicha to'g'ri joylashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va shu orqali har qanday mintaqa, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdan iborat. Ushbu resursning cheklanganligini hisobga olgan holda, bu jarayonni mintaqalar bo'yicha prognoz qilish, bundan tashqari tabiiy resurslarning tiklana olish qobiliyati, imkoniyati, sharoitini har doim o'rganib, baholab borish ham barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy barqaror rivojlanishda – yer yuzida yashaydigan barcha xalqlarning moddiy va ma'naviy hayotini birgalikda, bir xilda rivojlantirish, eng avvalo kishilarning sifatli oziq-ovqat va toza, chuchuk suv resurslari bilan yetarli ta'minlash inobatga olinadi.

Ekologik barqaror rivojlanishda esa – jamiyatning tabiiy resurslarga, tabiat komplekslarining miqdoriy va sifat jihatidan jiddiy ta'sir ko'rsatmasdan iqtisodiy va



ijtimoiy rivojlanishi inobatga olinadi. Ushbu konsepsiyaning asosiy mazmuni shundan iborat bo'lib, jamiyat rivojlanishi, davlatlarning taraqqiy etishi, tabiat komponentlariga kuchli ta'sir etmasdan sodir bo'lishi kerak. Tabiat boyliklaridan unumli foydalanishda mazkur konsepsiyaning o'rni beqiyos bo'lib, oldingi ishlarda, jarayonga faqat bir tomonlama qaralganda, hatto ba'zida tabiiy resurslar va ulardan foydalanishga bo'lgan iqtisodiy va ekologik jihatlar bir-biriga qarama-qarshi holatga kelib qoldi.

Har bir mamlakatning asosiy vazifasi, iqtisodiyotini rivojlantirish hamda aholisining farovon hayot kechirishini ta'minlashdir. Shu bilan birga tabiatini, uning tabiiy boyliklarini ham avaylashi kerak. Konsepsiyada ularning har ikkisiga ham e'tibor qaratildi. Bu borada ham muammolar yetarlicha bo'lib, uning amalga oshirilishi ma'lum davr, mablag' hamda chuqur bilimni talab qiladi. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligi iqtisodiy kategoriya bo'lib hisoblanadi. Lekin ushbu tushuncha faqatgina iqtisodiy yoki xo'jalik ma'nolari bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy, rekreatsion va tabiatni muhofaza qilish tushunchalarini ham qamrab oladi.

Yer resurslaridan foydalanishning har bir jihatiga ma'lum bir turdagi: ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik samaradorlik xosdir. Ulardan foydalanish faqat bitta nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, unda faqat ma'lum turdagi samaradorlikka erishiladi. Ushbu samaradorlik esa undan foydalanishning boshqa jihatlariga zarar keltirish hisobiga amalga oshishi mumkin. Ushbu jihatlarining talablari ulardan foydalanishning asosiy sharti sifatida qo'llanilmaydi.

Yer resurslaridan foydalanish barqarorligiga zarar yetkazmaslikning asosiy sharti antropogen ta'sirlarning, tabiiy resurs tiklana olish qobiliyati chegarasidan ortib ketmaslik bo'lib hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer fondi uch toifaga bo'linadi. Bularga quyidagilar kiradi:

Суғорилади ган ерлар

лалмикор ерлар

табиий яйловлар

*

(1-rasm. Qishloq xo'jaligi yer turlari)*



Bugungi kunda respublikamizda sug'oriladigan yerlar 9,6%ni tashkil qiladi. Tabiiy resurslar o'z – o'zini tiklana olmasa yoki bu jarayon sekinlab qolsa, insoniyat uchun zarur bo'lgan barcha tabiiy boyliklar zaxirasi kamayib boradi. Ba'zida ortiqcha samaradorlik ham nafaqat ekologiyaga (atrof-muhitga), balki iqtisodning o'ziga ham zid keladi. Ya'ni bir – biriga bog'liq tomonlaridan foydalanib, chuqur tahlil qilgan holda o'rganish har tomonlama ma'quldir. Ushbu bog'liqlikni esa iqtisodiy – ekologik jihat orqali tadqiq qilish mumkin. Yer resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy-ekologik jihatlari qaysidir ma'noda mustaqil yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning afzallik tomoni iqtisodiy va ekologik jihatlar bilan bir xilda tadqiq qilinishidir. Ya'ni, bunda ham eng avvalo iqtisodiy foyda, umumli foydalanish samaradorlik nazarda tutiladi. Ammo iqtisod ekologiyadan uzoqlashmaydi, unga qarama-qarshi kelib qolmasdan, uning qonuniyatlari, keltirilgan shartlarini hisobga oladi, ulardan aynan o'zining asosiy tushunchasi sifatida foydalanadi.

Iqtisodiy samaradorlikka esa yana kam kuch yoki mehnat sarflash hamda kam resurs ishlatib ko'proq foyda olishni qo'shish mumkin. Ayniqsa tabiiy resurslarni avaylash, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish lozim bo'lgan sharoitda, ishlab chiqarish rejasi, har tomonlama puxta bo'lishi maqsadga muvofiq. Buni iqtisodiy – ekologik samaradorlik sifatida e'tirof etish mumkin. Iqtisodiy samaradorlikka nisbatan, iqtisodiy – ekologik samaradorlik tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda muhim jarayondir. Yer resurslaridan foydalanishda iqtisodiy-ekologik tadqiq etish, mana shu aloqadan xo'jalikda to'g'ri va samarali foydalanish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish agrosanoat kompleksida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning xo'jalik mexanizmi esa bu muammoni bilvosita, ya'ni agrar munosabatlarni tartibga solish orqali amalga oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.T.Tursunov, T.U.Raximova EKOLOGIYA O'quv qo'llanma T., 2006y. 74-79b.
2. Namozov J. A. Yer - suv resurslaridan oqilona foydalanishga oid zamonaviy qarashlar “O'zbekistonda geografiya fanining dolzarb masalalari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari Termiz, 2020 yil